



## MUDOFAA VAZIRLIGI HUZURIDAGI “G’ALABA BO‘G‘I” YODGORLIK MAJMUASI

**1-BOB: “G’ALABA BOG‘I ” YODGORLIK MAJMUASI**

**4-MASHG‘ULOT:“YOVNI MAVH ETGAN ADOLAT KUCHLARI” MAYDONCHASI**



“G’alaba bog’i”dan o’rin olgan “Yovni mavh etgan adolat kuchlari” maydonchasida artilleriya, zenit qurilmalari, urush jarayonida tub burilish yasalishida alohida o’ringa ega bo’lgan afsonaviy “Katyusha”, engilmas T-34 tanklari, qiruvchi samolyotlar YaK-3, La-5, La-7, shturmchi Il-2, Toshkentda ishlab chiqarilgan Li-2 transport samolyotlarini tomosha qilib, urush davridagi harbiy texnika xaqidagi to’liq tassavvurga ega bo’lish mumkin.

## T-70 tanki



**T-70 — Ikkinci jahon urushi davridagi engil sovet tanki. 1941 yilning oktyabr-noyabr oylarida Gorkiy avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan. Quronishiga 1942 yilning yanvar oyida qabul qilingan.**

T-70 engil tanklari T-34 tanklari bilan birlashtirilganda tankchi brigada va polklarining quronishida bo'lган hamda o'ziyuradagi artilleriya qurilmalari polki va brigadalarida komandirlar mashinasi sifatida foydalanilgan.

T-70 tankiga 45 mm to'p va minorasida 7,62 mm Dyagterev tank pulemyoti o'rnatilgan. Tank ekipajiga ikki kishidan - mehanik - haydovchi va komandirdan iborat bo'lgan. Tankning jangovar vazni – 9,2 tonna, maksimal tezligi – 45 km/s.

## T-34 o'rtacha tanki



T-34 tanki Ikkinci jahon urushida g'alabani ta'minlagan sovet qurollaridan biri va qozonilgan g'alaba timsoli hisoblanadi. T-34 o'rtacha sovet tanki 183-sonli Xarkov zavodida M. Koshkin rahbarligida ishlab chiqarilgan. 1940 yilda qurollanishga qabul qilingan. Ikkinci jahon urushining barcha operatsiyalarida ishtirok etgan Qizil armiyaning asosiy va eng ommaviy tanki hisoblangan. O'rnatilgan V-2 dizel dvigateli tankning yuqori manyovrchanligini va o'tuvchanligini hamda yangi shakldagi zirhi uning yuqori himoyasini ta'minladi.

T-34 tanki o'zining himoyalanish darajasi va to'pining quvvatiga ko'ra Panzerkampfvagen III, IV o'rtacha nemis tanklaridan ancha ustunlikka ega edi. 1944 yilda uning negizida 85 mm li to'pga va mukammal zirhga ega T-34-85 tanki yaratildi. 1942 yildan T-34 tanklari Ural va Sibir mashinasozlik zavodlarida ishlab chiqarilgan.

Tankning tavsliflari: ekipaji – 4 kishi; og'irligi – 26,8 t; tezligi – 53,5 km\s; kuch qurilmasi 500 ot kuchiga ega V-2 dizel dvigateli; qurollari – 76 mm to'p, 2 ta 7,62 mm li DT pulemyotlari; bir zapravka bilan harakatlanishi – 300-370 km; old zirhi – 45 mm

## SU -100 o'zi yurar artilleriya qurilmasi



**SU-100 – Ikkinchi jahon urushi davrida tanklarni yakson qilish uchun mo'ljallangan o'rtacha og'irlikdagi sovet o'ziyurar artilleriya qurilmasidir.** 1944 yilning boshlarida Uralmashzavod konstruktorlik byurosi tomonidan T-34-85 o'rta tanki negizida barpo etilgan. **SU-100 o'ziyurar artilleriya qurilmasi Ikkinchi jahon urushining oxirgi davrlarida va sovet-yapon urushida qo'llanilgan.** SU-100 o'ziga xos otish quvvatiga ega bo'lib, har qanday nishonga olish masofalarida dushman tanklari bilan jang qilishga qodir bo'lgan. 100 mm li D-10 S to'pining zirhteshar snaryadi 2 ming metr masofadan 139 mm li qalinlikdagi zirhni, bir kilometrgacha bo'lgan masofalarda esa har qanday fashist tanklarining zirhini butunlay tesha olgan.

Taktik-texnik tavsiflari: ekipaj – 4 kishi; old zirhi – 75 mm; yurish uzoqligi – 140 km; tezligi – 55 km\s; og'irligi – 31,2 t; kuch qurilmasi V-2-34M dizel dvigateli, quvvati 520 ot kuchi; qurollari – 100 mm li D-10 S to'pi

## IS-2 og'ir tanki



IS-2 tanki 1943 yilning 31 oktyabrida SSSR zirhli tank qo'shinlari qurollanishiga qabul qilingan. IS-2 tanki KV tanki negizida yaratilgan bo'lib, 122 mm kalibrli uzun stvolli to'p bilan jihozlangan. Vermaxtda ushbu tank bilan kurash olib boradigan vosita bo'limgan, hatto fashistlarning eng qudratli "Tigr" tanklaridagi to'pning kalibri 88 mm ni tashkil etgan. Nemis qo'mondonligining rasmiy ko'rsatmasi mavjud bo'lib, unda "Tigr" tanklarining IS-2 tanklari bilan to'g'ridan-to'g'ri jangga kirishi taqiqlangan, yoki ISlarga qashi jangga kirish uchun 3-5 martalik ustunlik yaratilishi talab qilingan. IS-2 tanklarining yaratilishi bilan Qizil armiya nemislarning og'ir tanklari bilan kurashishga qodir samarali vositaga ega bo'ldi. Tank to'pining qudratli bir zarbasi dushmanning har qanday zirhli ob'ektlarini va uzoq muddatli otish nuqtalarini yakson qilgan. Taktik-texnik tavsiyatlari: ekipaj – 4 kishi; old zirhi – 120 mm; yurish uzoqligi – 150 km; tezligi – 37 km\s; og'irligi – 46 t; kuch qurilmasi - quvvati 520 ot kuchiga ega V-2 dvigateli; qurollari – 122 mm li DT-25 T to'pi, 3 ta 7,62 DT pulemyoti

## IS-3 og'ir tanki



IS-2 og'ir tanki Ikkinchiji jahon urushining yakunlovchi bosqichida, 1945 yil 29 martda qurollanishga qabul qilingan. Tank o'z davri uchun noodatiy tashqi ko'rinish va minoraga ega edi. Minoraning tomiga zenit pulemyoti o'rnatilgan bo'lib, tank ekipaji komandiri undan samolyotlarga qarata o'q otish imkoniyatiga ega bo'ldi.


IS-3 tanki urushga bir necha oy kechikib kirdi, biroq Ikkinchiji jahon urushi yakuni munosabati bilan ittifoqchi qo'shinlar tomonidan 1945 yil 7 sentyabrda ishg'ol etilgan Berlinda uyuştirilgan paradda bиринчи бор намойиш etildi va ko'pchilik harbiy ittifoqchilar va mutaxassislarning shov-shuvlariga sabab bo'ldi. Taktik-texnik tavsiflari: ekipaj – 4 kishi; old zirhi – 120 mm; yurish uzoqligi – 190 km; tezligi – 40 km\s; og'irligi – 45,8 t; kuch qurilmasi V-11 dizel dvigateli, quvvati 520 ot kuchi; qurollari – 122 mm li D-25 T to'pi, 12,7 mm li DShK pulemyoti, 7,62 mm li DTM pulemyoti

## ISU-152 o'ziyurar artilleriya qurilmasi



ISU-152 – Ikkinchi jahon urushi davridagi eng og'ir o'ziyurar-artilleriya qurilmasidir. Mazkur mashinaning nomi ISU “IS tanki negizidagi o'ziyurar qurilmani” anglatadi. Qurollanishga 1943 yilning 6 noyabrida qabul qilingan. Mazkur qurilma tarixga “Zveroboy” taxallusi bilan kirgan, qurilmaga o'rnatilgan 152,4 mm gaubitsa 49 kilogrammli o'ta og'ir snaryadlar bilan 600 metr masofadagi har qanday zirhni teshib o'tish xususiyatiga ega bo'lib, nemislarning «Tigr» va «Pantera» tanklarining minorasini yakson qilgan, hatto gitlerchilarning yaxshi himoyalangan texnikasidan bir necha metr masofada portlagan snaryad ta'sirida ular yaroqsiz holga kelgan. Taktik-texnik tavsiflari: ekipaj – 5 kishi; old zirhi – 75 mm; yurish uzoqligi – 190 km; tezligi – 43 km\s; og'irligi – 45,5 t; kuch qurilmasi V-2K dizel dvigateli, quvvati 600 ot kuchi; qurollari – 152 mm li ML-20 gaubitsasi

## 57 mm 1941 yil namunasidagi tankka qarshi ZIS – 2 to'pi



V.Grabin rahbarligidagi konstruktorlar byurosi tomonidan 1940 yilda 57 mm tankka qarshi ZIS – 2 to'pi yaratildi va 1941 yil martida qurollanishga qabul qilindi. 57 mm tankka qarshi ZIS – 2 to'pi o'sha zamonning eng kuchli tankka qarshi vositasi hisoblangan. 1941 yilda ZIS – 2 to'pining zirh teshuvchanligi shunaqa ortiqcha ediki, o'sha paytdagi nemislarning tanklariga qarshi 76 va 45 mm li to'plarning qarshi tura olishlari etarli edi. Shuningdek, ishlab chiqarishning murakkabligi va tannarxining qimmatligi tufayli uni ishlab chiqarish to'xtatildi. Jang maydonlarida dushmanning og'ir "Tigr" tanklarining paydo bo'lishi 45 va 76 mm li to'plarning ularga qarshi kurashishining samarasiz ekanligini ko'rsatdi. 1943 yilda ZIS – 2 to'pini ishlab chiqarish yana yo'lga qo'yildi.

Asosiy tavsiflari: hisobi -5 kishi; vazni – 1250 kg; otish uzoqligi – 8400 m; zirh teshuvchanligi 500 metrdan 147 mm; otish sur'ati – daqiqada 20-25 snaryad

## 1942 yil namunasidagi 76-mm ZIS-3 diviziya to'pi



Qarshingizda, konstruktor Vasiliy Grabin tomonidan yaratilgan Ikkinchi jahon urushining eng yaxshi to'plaridan biri - 1942 yil namunasidagi 76 mm li ZIS-3 diviziya to'pi joy olgan. U Gorkiy shaxridagi 92-raqamli zavodda ishlab chiqarilgan.

Ushbu diviziya to'pining polk artilleriyasidan farqi, ZIS-3 batareyalari to'g'ridan to'g'ri diviziya komandiriga bo'y singan. Bunday qurol uzoq masofaga otganligi tufayli ancha muhim vazifalarni bajarishga jalb qilingan. To'pdan otilgan snaryad tezligi tovush tezligidan yuqori bo'lган. ZiS-3 1943 yildan boshlab ommaviy tarzda ishlab chiqarila boshlangan va tankka qarshi polklar qurollarining asosini tashkil qilgan. Bir vaqtning o'zida dushmanning ham zirhli tank qo'shnlari, ham piyodalariga katta talofatlar etkazadigan yagona to'pdir.

Zis-3 ning nishonga oluvchisiga to'p stvolini gorizontal va vertikal yo'naliishlarga burish dastaklari bir joydaligi katta qulaylik yaratgan. To'pning asosiy tavsiflari: hisobi – 6 kishi; vazni – 1116 kg; otish uzoqligi – 13290 m; otish sur'ati - daqiqada 25 snaryad

## 1944 yil namunasidagi 100 mm BS-3 dala to'pi



Navbatdagi eksponat Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan muzeyga sovg'a qilingan 100 mm li BS-3 dala to'pidir. Ushbu to'p Vasiliy Grabin tomonidan 1944 yida ishlab chiqarilgan. 1944 yilning 7 mayida Qizil armiyaga qurollanishga qabul qilingan.

To'p birinchi navbatda fashistlarning "Tigr" va "Pantera" tanklarini yo'q qilish uchun ishlab chiqarilgan. Tankning zirhini teshib o'tmaganda ham tank ichidagi boshqaruv tizimlarini ishdan chiqargan, ekipaj esa kuchli kontuziya olgan va tank zirhining ichkarisidan ko'chgan parchalardan talofatlangan. 100 mm BS-3 dala to'pi birinchi bor Qizil armiya qo'shinlari tomonidan Vengriyaning Balaton ko'li yaqinida o'tkazgan operatsiyalarida qo'llanilgan. 100 mm ushbu BS-3 dala to'pi Ikkinchi jahon urushning yakuniy bosqichlarida dushmanning yaxshi himoyalangan mudofaa to'siqlarini yo'q qilishda katta rol o'ynadi.

Asosiy tavsiflari: hisobi – 6 kishi; vazni – 3650 kg; otish uzoqligi - 20 000 m; otish sur'ati – daqiqada 10 snaryad.

## 1938 yil namunasidagi 122-mm M-30 gaubitsasi



Nabatdagi artilleriya quroli 1938 yil namunasidagi 122 mm li M-30 gaubitsadir. Ushbu gaubitsa Qizil armiyaning Ikkinchiji urushi yillaridagi asosiy artilleriya tizimi hisoblangan. U quroloz konstruktor F.Petrov boshchiligidida ishlab chiqarilgan. To'p bilan gaubitsaning asosiy farqi, to'plar snaryadni erga paralel ravishda, gaubitsa esa yoy traektoriyasi bo'yicha yuboradi. Shuning uchun gaubitsaning stvoli erga nisbatan ancha yuqoriga ko'tarilgan. Gaubitsa osma traektoriya bo'yicha otganligi tufayli snaryadga boshlag'ich katta tezlik kerak emas, shuning uchun uning stvoli to'plarga nisbatan kaltaroq bo'ladi. Nishonni ko'rmay turib, ya'ni koordinatalar bo'yicha yopiq o't ochish pozitsiyalaridan zarba berish uchun eng qulay artilleriya vositalaridan biri bo'lgan. Asosiy tavsiflari: hisobi – 8 kishi; vazni – 2450 kg; otish uzoqligi – 11800 m; otish sur'ati – daqiqada 5-6 snaryad.

## 1943 yil namunasidagi 152-mm D-1 gaubitsasi



Artilleriya tizimlarini unifikatsiya qilish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan F. Petrov boshchiligidagi muxandislik byurosi 18 kun mobaynida 152 mm D-1 gaubitsasini to'liq sinovlardan o'tkazdi va u 1942 yilda qurollanishga qabul qilindi. Ushbu artilleriya vositasi 100 mm li BS-3 to'pi singari muzeyimizga Rossiya Federatsiyasi tomonidan sovg'a qilingan. Urush davrida jami 2827 dona D-1 gaubitsasi ishlab chiqarilgan. D-1 gaubitsasi urushning yakuniy bosqichida 1944-1945 yillarda faol qo'llanildi. Gaubitsa yopiq pozitsiyalardan turib dushmanning ochiqlikda joylashgan tirik kuchlarini, fortifikatsiya inshootlarini, to'siqlarni va muhim ta'minot tizimlarini yo'q qilishda samarali qo'llanildi. Asosiy tavsliflari: vazni – 3600 kg; otish uzoqligi – 12400 m; otish sur'ati daqiqada 3-4 snaryad; hisobi – 8 kishi.


## BM-13 reaktiv minomyoti “Katyusha”



BM-13 “Katyusha” reaktiv minomyoti 1941 yilning 21 iyun kuni, fashistlar bosqinidan bir kun oldin qurollanishga qabul qilindi. “Katyusha” larning jangda birinchi bor qo’llanilishi 1941 yil 14 iyul kuni Belorussiyaning Orsha shahri hududida amalga oshirildi. Kapitan I.Flyorovning artilleriya batareyasi temir yo’l tarmog’iga zarba berib, dushmanning harbiy texnika, yoqilg’i va boshqa zaxiralari ortilgan eshelonlariga zarba berdi. Dushmanga juda katta zarar keltirdi. Ikkinci jahon urushining eng qudratli qurollaridan biri hisoblangan BM-13 dek quroq biror davlatda ishlab chiqarilmadi. Uchayotgan “Katyusha” snaryadlarining tovushi, parchalanayotgan snaryadlarning keng maydon bo’ylab sochilishi dushmanni tahlikaga tushirdi. Dushman tomonidan BM-13 reaktiv minomyotlarni qo’lga kiritish xavfi tug’ilganda uni portlatib yuborish to’g’risida buyruq berilgan. Sovet qo’shinlarining har bir yirik hujumi BM-13 larning qudratli zarbalarini bilan boshlangan.

BM-13 “Katyushalar” ZIS-6 va Amerikaning Studebekker avtomobillariga o’rnatalilgan. Uning asosiy tavsiflari: reaktiv snaryad kalibri – 132 mm; yo’naltiruvchilar soni – 16 ta; reaktiv snaryad vazni – 42,3 kg; otish uzoqligi 8500 m; 16 ta reaktiv snaryadni otish vaqt – 7-10 soniya; hisobi 5-7 kishi

## 1939 yil namunasidagi 37 mm avtomatlashtirilgan AZP -39 zenit to'pi



Muzeyning qarshingizda turgan eksponati Belorus Respublikasi Hukumati tomonidan muzeyimizga sovg'a qilingan. Urush yillarida, Qizil Armiyaning eng ommaviy zenit quroli hisoblangan 37-mm AZP-39 (61-K) "Samo qo'riqchisi" nomi bilan ma'lum avtomatlashtirilgan zenit to'pi – 1939-yilda ishlab chiqarilgan. Aynan "zenit qurollari" oldingi marralardagi qo'shinlarni va front ortidagi ob'ektlarni nemis aviatsiya zarbalaridan himoya qiluvchi yagona vosita bo'lib, zaruratga ko'ra dushmanning zirhli texnikalari, tanklari va tirik kuchlarini yo'q qilishga ham jalb qilingan.

Uning asosiy tavsiflari: hisobi – 7 kishi; kalibri – 37 mm; otish sur'ati – 160-170 snaryad bir daqiqada; vazni – 2100 kg.

## 57-mm avtomatlashtirilgan S-60 zenit to'pi



Muzeyning navbatdagi eksponati ham havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining qurollariga oid bo'lib, 57 mm li avtomatlashtirilgan S-60 zenit to'pidir. Urush yillarida samolyotlar parvozining balandligi va ularning tezligi ortib bordi, ular zirhlana boshlandi, bular havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining qurollarini takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi. Ushbu masalaning echimi sifatida biz 57 mm li avtomatlashtirilgan S-60 zenit to'pini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Uning asosiy tavsiflari: kalibri - 57 mm; jangovar holatdagi og'irligi - 4 800 kg; gorizontal otish uzoqligi - 12 000 m; havo nishonlariga qarata otish maydoni - 6 000 m; eng yuqori burchak ostida otishi - 87°; otish sur'ati – daqiqada 120 snaryad; hisobi 8 kishi.

## Qiruvchi – monoplan La-7



“Yovni mavh etgan adolat kuchlari” maydonchasida Ikkinci jahon urushida qo’llanilgan samolyotlar ham o’rin egallagan. La-7 sovet qiruvchi-monoplan samolyoti Ikkinci jahon urush davrida konstruktor Semen Lavochkin rahbarligida ishlab chiqarilgan ilg’or qiruvchi samolyotlardan biri hisoblanadi. Ushbu samolyot quyidagi taktik-texnik tavsiflarga ega: uzunligi - 8,6m; uchishidagi vazni – 3240 kg; maksimal tezligi – 655 km\s; ko’tarilish balandligi 11300 m; uchish uzoqligi – 655 km; qurollari 2 ta 20 mm li to’p.

Samolet S. Lavochkinning avvalgi samolyotlari kabi manevrchanlik va mustahkamlikni o’zida mujassam etib, mukammallashtirilgan aerodinamikasi katta tezlikda uchish imkonini beradi.

La-7 samolyotlari 1944 yili qo’shinlar qurollanishiga kelib tushib, uchuvchilar tahsiniga sazovor bo’lgan hamda ko’plab taktik-texnik xususiyatlariga ko’ra nemis qiruvchi samolyotlaridan ustun edi.

La-7 sovet qiruvchi samolyoti liyuftvaffe bilan bo’lgan janglarda ustunlikka ega bo’lib, eng kam talofot ko’rgan. La-7 qiruvchi samolyotini mohirlik bilan boshqargan uchuvchilar orasida eng taniqli uchuvchi uch karra Sovet Ittifoqi Qahramoni Ivan Kojedubdir.

## Li-2 harbiy-transport samolyoti



Ushbu samolyotlar DC-3 (Douglas) Duglas samolyoti negizida ishlab chiqarila boshlandi. Samolyotlarning ilk to'plamlari 1939 yilning yozida Gorkiy shahridagi 84-sonli zavodning mashina yig'ish sexidan PS-84 (passajir samolyoti, 84-sonli zavod) nomi bilan chiqarila boshlandi. 1941 yilning kuzida 84-zavod Toshkentda evakuatsiya qilindi. Endi samolyotlarni ishlab chiqarish Toshkentga amalga oshirila boshlandi. Shu yili zavod bosh muhandisi B.Lisunov rahbarligida samolyot takomillashtirildi, unga konstruktiv o'zgartirishlar kiritildi va samolyot bosh muhandis sharafiga Li-2 deb atala boshlandi. Ushbu samolyot quyidagi taktik-texnik tafsiflarga ega: ekipaj – 4 kishi; kuch qurilmasi – har biri 1000 ot kuchiga ega ikkita 2PDM-62 IR dvigateli; uchishdagi vazni – 11 000 kg; desant soni – 28 kishi; uchish tezligi – 320 km\s; uchish balandligi – 5600 m; uchish uzoqligi – 2500 km.

## Il-2 shturmchi samolyoti



Il-2 samolyoti jahondagi birinchi zirhlangan shturmchi samolyot hisoblanadi. Jangovar sifatlari yuqori bo'lgan bunaqa samolyot Ikkinci jahon urushi yillarida boshqa birorta aviakonstruktor bunday samolyot ishlab chiqara olmadi. Ushbu samolyotning ustunlik tomonlari shundan iboratki, u Ikkinci jahon urushining eng mukammal, yuqori uchish-texnik tavsiflarga, kuchli zirhlanganligi uchun yuqori yashovchanlikka va qudratli qurollarga egaligi va boshqaruvning oddiyligidadir. Uning yagona kamchiligi uchuvchining ortida joylashgan o'qchi kabinasining himoyalanmaganligidir. Ekipaji- 2 kishi; uzunligi – 11,6 m; uchish vazni – 5340 kg; qurollari – 23 mm li 2 ta VYa to'pi, ortida 12,7 mm li UBT pulemyoti; bomba ko'tarishi – 400 kg; reaktiv snaryadlar – 8 dona; uchish tezligi 402 km\s; ko'tarilish balandligi – 4000 m; uchish uzoqligi – 765 km. 1941 yil yozida aviatsiya qurollanishiga kiritilgan

## Qiruvchi La-5 samolyoti



1943 yil aprelida La-5 FN samolyoti qiruvchi aviatsiya qurollanishiga qabul qilindi. Doimo uning boshqaruv, yoqilg'i va havo tizimlari konstruktorlar tomonidan takomillashtirib borildi. Tezligi avvalida 630 kmg's, keyinchalik, 685 km\s ga etkazildi. Yuqori tezlik va manyovrchanligi uchun u dushman Messershmitlarining ortiga tezkorlik bilan o'tib hujum qilardi.

La-5 FN samolyotlari Kursk yoyidagi janglarda muvaffaqiyat bilan qo'llanildi, Dnepr daryosini kechib o'tishda 17-Havo armiyasi tarkibida kechuvni ta'minlashda va boshqa ko'pgina hal qiluvchi janglarda ushbu samolyot yuqori jangovar samaradorlik bilan qo'llanildi.

Samolyot quyidagi taktik-texnik tavsiflarga ega:

Uzunligi – 8,6 m; uchishdagi vazni – 3168 kg; maksimal tezligi – 648 km\s (yangi turdagи dvigatelllar o'rnatilib samolyotning tezligi muntazam oshirilib borildi); uchish uzoqligi – 1000 km; ko'tarilish balandligi – 11200 m; ekipaj – 1 kishi; qurollari – 2 ta 20 mm li ShVAK to'pi, 2 ta 100 kg li bomba.

## **Qiruvchi Yak-3 samolyoti**



**Yak-3 qiruvchi samolyoti 1944 yil mart oyida qurollanishga qabul qilindi. Ikkinchiji jahon urushi davrining mukammal samolyotlaridan biri hisoblanadi. Yak-3 ishlab chiqarilishi bilan sovet aviatsiyasi havoda hukmronlik qo'lga kiritishni ta'minladi. Urushning oxiri gacha 4848 ta Yak-3 ishlab chiqarildi.**

**Samolyot quyidagi taktik-texnik tavsiyflarga ega:**

**Uzunligi – 8,5 m; uchishdagi vazni – 2692 kg; maksimal tezligi – 646 km\s; uchish uzoqligi – 648 km; ko'tarilish balandligi – 10400 m; ekipaj – 1 kishi; qurollari – 1 ta 20 mm li ShVAK to'pi, 2 ta 12,7 mm li UBS pulemyoti.**